

O'zbekiston Respublikasi
Axborot texnologiyalari
va kommunikatsiyalarini
rivojlantirish vazirligi

MUHAMMAD
AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI



Ministry for development of
information technologies and
communications of the
Republic of Uzbekistan

TASHKENT UNIVERSITY
OF INFORMATION
TECHNOLOGIES NAMED
AFTER MUHAMMAD
AL-KHWARIZMI

100084 Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108

Tel: 238-64-89; 238-64-15. E-mail: info@tuit.uz

4120/6-01 -son

« 29 » 12 / 2021 yil

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligiga

Vazirlikning 2021-yil 23-dekabrda 87- 02-1436-sonli topshiriq xati ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yubormoqdamiz.

Ilova: 12 varaq

Rektor v.b

B.Maxkamov

Ijrochi: L.Jo'rayev
712386562

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
2021-yil davomida qabul qilingan Hay'at qarorlari, Videosellektor yig'ilishlari hamda Apparat Kengashi yig'ilishi bayonlari ijrosi yuzasidan**

MA'LUMOTI

№	Topshiriq bandi	Mas'ul ijrochi, muddati	Ijro holati
I. Hay'at qarorlari ijrosi			
1.	<p align="center">7/1 Hay'at qarori ijrosi bo'yicha</p> <p>2.Talaba-qizlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor qaratish, ularning ta'lim olishi va ilmiy salohiyatga ega bo'lishi uchun sog'lom muhit yaratish, ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishiga doir o'quv-seminarlar mazmunini boyitish va yana-da kengaytirish hamda bunday tadbirlar doirasida qizlarga milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda zarur maslahatlar berish;</p> <p>talabalar turar joyi, ijarada va yaqin qarindoshinikida vaqtincha yashaydigan talabalar, xususan, talaba-qizlar holidan muntazam xabar olish, ularni ta'lim jarayonlariga doimiy integratsiya qilib borish;</p> <p>talabalarga hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilim berish, chet tillariga o'qitish hamda bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish (band qilish) maqsadida sport va fan to'garaklariga jalb qilish;</p> <p>oliy ta'lim muassasasi talaba-qizlari o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi ishlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida boshqaruvda ayollar rolini oshirish, jumladan, talabalar umumiy soniga nisbatan qizlar ulushi ko'p bo'lgan fakultetlarda dekanning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari va tyutorlik lavozimlariga uzoq yillik hayotiy tajribaga ega bo'lgan,</p>	<p>Yoshlar masalalari va ma'naviy marifiy ishlar bo'yicha prorektor v.b. F.Ernazarov</p> <p align="center">17.11.2021</p>	<p>7/1 Hay'at qarori ijrosi bo'yicha universitetning 2021-yil 22-dekabrda 1381-son buyrug'i kiritilgan.</p> <p>2.Talaba-qizlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ularning ta'lim olishi va ilmiy salohiyatga ega bo'lishi uchun sog'lom muhit yaratilgan, ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishiga doir o'quv-seminarlar mazmunini boyitilib, bunda tadbirlar doirasida qizlarga milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda zarur maslahatlar berib borilmoqda. Tadbirlar doirasida universitetning xotin-qizlar kengashi raisi universitet psixologi bilan birgalikda fakultetlar miqyosida ichki ishlar hodimlari, tuman hokimiyati xotin-qizlar bilan ishlashga mas'ul hodimlar bilan uchrashuvlar, seminar-treninglar olib borildi;</p> <p>talabalar turar joyi, ijarada va yaqin qarindoshinikida vaqtincha yashaydigan talabalar, xususan, talaba-qizlar holidan muntazam xabar olib borilmoqda, ularni ta'lim jarayonlariga doimiy integratsiya qilib borish ishlari amalga oshirilib borilmoqda. Bunda tyuturlar va fakultet dekanlarining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha muovinnlari bilan birgalikda ishlar tashkillashtirilgan. Talabalarga hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilim berish, chet tillariga o'qitish hamda bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida sport va fan to'garaklariga jalb qilib kelinmoqda, hozirgi kunda talabalarni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda boshqa turdagi to'garaklar tashkil qilish o'rganib chiqilmoqda.</p>

	<p>yoshlarga ibrat bo'la oladigan, tashabbuskor, yuqori malakali ayol kadrlarni tayinlash vazifalari yuklansin.</p>		<p>Universitet talaba-qizlari o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi ishlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida boshqaruvda ayollar rolini oshirish, jumladan, talabalar umumiy soniga nisbatan qizlar ulushi ko'p bo'lgan fakultetlarda dekaning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari va tyutorlik lavozimlariga uzoq yillik hayotiy tajribaga ega bo'lgan, yoshlarga ibrat bo'la oladigan, tashabbuskor, yuqori malakali ayol kadrlarni tayinlash taklifi o'rganib chiqilmoqda.</p>
<p>II. Videosellektor yig'ilishlari bayonlari ijrosi</p>			
<p>1.</p>	<p style="text-align: center;">6-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>1.3. joriy yilning 5-oyabriga qadar oliy ta'lim muassasasida tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish ishlarini yakuniga yetkazish;</p> <p>doimiy ravishda dekan o'rinbosarlari va tyutorlarning sifat ko'rsatkichi masalasi yuritib borilishiga e'tibor qaratish;</p> <p>kadrlarni tanlash va tayinlashda ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasiga alohida e'tibor qaratish hamda bu borada dekan va prorektorlarning mas'ulligini oshirish;</p> <p>zaxira kadrlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish va bu borada haqiqatan ham yuqori kompetensiyaga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor berish;</p> <p>fanga oid to'garaklar va madaniy-ma'rifiy klublar faoliyatini doimiy nazoratga olish hamda har chorakda shu yo'nalishdagi yig'ilishlarni o'tkazib borish tizimini joriy qilish;</p> <p>oliy ta'lim muassasasidagi har bir bino tashqarisi va ichki yo'laklariga kameralar o'rnatilishini ta'minlash;</p> <p>OTMdagi har bir favqulodda holat bo'yicha vazirlikka tezkor xabar berishi masalasini tizimli ravishda yo'lga</p>	<p>Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.b.F.Aripjanov 05.11.2021</p>	<p>Universitetda tyutorlik faoliyati yo'lga qo'yildi va hozirgi kunda 39 ta shtat birligi yaratilgan va har bir tyutorga 150 talaba bilan ishlash belgilangan.</p> <p>Tyutorlarni ishga olishda prorektorlar va dekanlar hamda boshqa mas'ullardan atshkil topgan komissiya asosida suxbat orqali ishga olingan.</p> <p>Universitetning hududi har bir bino tashqarisi va ichki yo'laklariga kuzatuv kameralari o'rnatildi.</p> <p>Universitetdagi har bir favqulodda holat bo'yicha vazirlikka tezkor xabar berish masalasi tizimli ravishda yo'lga qo'yildi. Shuningdek universitetda favqulotda holat ro'y bersa ogohlantirish tugmasi tashkil etilgan.</p> <p>2.1. Toshkent davlat texnika universiteti hududida ro'y bergan hodisa takrorlanmasligi oldini olish maqsadida universitetda mavjud tadbirkorlar bilan hamda talabalar bilan foydalanayotgan obyektlarning (oshxona, TTJ) texnik holati, is gazidan zaharlanishni oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlari doimiy ravishda olib borilmoqda hamda extitotkorlik bo'yicha targ'ibot materiallari joylashirilgan;</p> <p>Kuz-qish mavsumi davomida isitish tizimlarining muntazam ishlashini ta'minlash maqsadida mutasaddi</p>

qo'yish vazifalari yuklansin.

2.1. Toshkent davlat texnika universiteti hududida ro'y bergan hodisa kelgusida takrorlanmasligi uchun hududlaridagi tadbirkorlar bilan hamkorlikda foydalanayotgan obyektlarning texnik holati, is gazidan zaharlanishni oldini olish bo'yicha talabalar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish;

- Kuz-qish mavsumi davomida isitish tizimlarini muntazam ishlashlarini ta'minlash maqsadida mutasaddi xodimlardan iborat bo'lgan tunu-kun navbatchilik tashkil etish;

- Mutasaddi tashkilot vakillari bilan birgalikda yong'in chiqishini oldini olish maqsadida mavjud muhandislik kommunikatsiya tizimlarini yana bir bor ko'rikdan o'tkazish;

- Qo'lbola isitish anjomlaridan foydalanishni taqiqlash;
- OTMdagi oshxonalar jumladan, TTJlardagi gaz plitalari, ovqat pishiradigan jihozlarni, elektr tarmoqlarini to'liq reviziyadan o'tkazish;

- Is gaziga qarshi targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

- Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, evakuatsiya mashg'ulotlari o'tkazish tarqatma materiallar berish;

- Yong'in xavfsizligi xizmatlarini tegishli xulosalarini olish;

-Tyutorlarni jalb qilgan holda MCHS va Ichki ishlar organlari xodimlari bilan birgalikda ijarada turuvchi talabalarni yashash joylaridagi isitish, elektr tarmoqlari va ovqat pishirish anjomlarini yong'in xavfsizligi talablariga javob berishini xonadonma-xonadon ko'rib chiqish vazifalari yuklansin

3.1. O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 2030-yilgacha

xodimlardan iborat bo'lgan tunu-kun navbatchilik tashkil etildi.

Mutasaddi tashkilot vakillari bilan birgalikda yong'in chiqishini oldini olish maqsadida mavjud muhandislik kommunikatsiya tizimlari yana bir bor ko'rikdan o'tkazildi va tegishli dalilatnomalar tuzildi.

Qo'lbola isitish anjomlaridan foydalanishga yo'l qo'yimaslik maqsadida doimiy tekshiruv va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Universitetning oshxonalari jumladan, TTJlardagi gaz plitalari, ovqat pishiradigan jihozlari, elektr tarmoqlari to'liq reviziyadan o'tkazildi.

Is gaziga qarshi targ'ibot ishlarini kuchaytirildi.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinmoqda, evakuatsiya mashg'ulotlari o'tkazildi va yong'in xavfsizligi iz gazidam ximoyalani bo'yicha tarqatma materiallar berilmoqda.

Favqulodda vaziyatlar boshqarmashi Yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan yong'in xavfsizligi bo'yicha tegishli xulosalar olindi.

Universitetda faoliyat yuritayotgan tyutorlar, ichki ishlar hodimlari hamda tuman FVV va Ichki ishlar organlari xodimlari xamkorlikda ijarada turuvchi talabalarni yashash joylariga brogan holda yashash sharoiti, honadon egalari, isitish, elektr tarmoqlari va ovqat pishirish anjomlarini yong'in xavfsizligi talablariga javob berishi xonadonma-xonadon ko'rib chiqildi.

	<p>bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasining Samarqand viloyatidagi o'rganishlarida aniqlangan kamchilik va muammolar chuqur tahlil qilinsin hamda oliy ta'lim muassasalari kengashlari yig'ilishlarida ko'rib chiqilsin.</p> <p>4.1. Davlat byudjetidan 2021 yil uchun ajratilgan mablag'larni belgilangan maqsadlarda o'z vaqtida sarflash choralarini ko'rsin.</p>		<p>4.1. Davlat byudjetidan 2021 yil uchun ajratilgan mablag'lar belgilangan maqsadlarda o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda sarflandi.</p>
2.	<p style="text-align: center;">8-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>Yashil makon umummilliy loyihasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-noyabrdagi 694-F-son farmoyishi doirasida daraxt ko'chatlarini ekish ishlarini yanada jadallashtirish va joriy yilning 31-dekabriga qadar prognoz ko'rsatkichlarini to'liq bajarish, daraxtlarni parvarish qiluvchi alohida mas'ul xodimlarni tayinlash, ushbu masala bo'yicha ko'rik-tanlovlarni yuqori saviyada o'tkazish.</p> <p>1. Qo'shma ta'lim dasturlaridagi talabaga bog'liq bo'lmagan muammoli vaziyatlarni yechish (xorijiy vizani olish, xorijdagi OTM yotoqxonasidan joy ajratish va h.k.) choralarini ko'rish, zarur hollarda ularning o'qishlarini boshqa qo'shma dasturlarga ko'chirish imkoniyatlarini yaratish.</p> <p>1.1. Qo'shma ta'lim dasturlari uchun imkoniyat darajasida bino yoki uning alohida qavatini ajratish,</p> <p>o'quv jarayonini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish,</p> <p>talabalarning chet tili (o'qish tili) o'zlashtirilishini ta'minlash.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi 563-son qaroriga muvofiq davlat-</p>	<p>Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.b.F.Aripjanov 16.12.2021</p>	<p>Universitetda 2021- yil 22-dekabrda 1394-01- sonli buyruq kiritilgan va ijrochilarga vazifalar belgilab berilgan/ "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida universitet va tegishli bo'lgan hududlarda mevali va manzarali daraxtlar, butalar ko'chatlari ekildi. Daraxtlarni parvarish qiluvchi alohida mas'ul xodimlar tayinlandi.</p> <p>3. Universitetda mavjud BDIRU qo'shma ta'lim dasturlaridagi ta'lim oladigan talabalarga xorijiy vizani olish, xorijdagi OTM yotoqxonasidan joy ajratish bo'yicha barcha choralar ko'rilgan, talabalar o'qishga etib borgan kundan TTJ bilan ta'minlangan va nazoratga olingan.</p> <p>3.1. Universitet hududida BDIRU qo'shma ta'lim dasturlari uchun "C" binosidan 4-5 qavatlar ajratildi. Tegishli laboratoriya va oq'uv xonalari tashkil etilgan.</p> <p>4. davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joylarini qurish bo'yicha universitetga yaqin bo'lgan hududdan Yunusobod tumani hokimligi bilan birgalikda joyajratilga. Hozirgi kunda tadbirkorlar jalb etish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.</p> <p>3.3 universitet talabalari uchun arzon va sifatli ovqatlanishni tashkil etish maqsadida rektor, prorektorlar, talabalar va fahriylardan iborat jamoatchilik vakillari tashkil etildi va Universitet hududidagi ovqatlanish xizmati sohasida</p>

xususiy sheriklik asosida talabalar turar joylarini qurish bo'yicha tadbirkorlarni jalb etishni ta'minlash.

3.3 Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi 563-son qarorining 5-bandiga asosan OTM talabalari uchun **arzon va sifatli ovqatlanishni tashkil etish**, ovqatlanish xizmati sohasida kamida ikki yillik tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlarni jalb etish va ushbu jarayonlarni nazorat qilish ishlariga **keng jamoatchilik vakillari**, jumladan faxriylar va faol talabalarni jalb qilish.

6. **Yangi ta'lim yo'nalishlarini ochishni** OTMning Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xulosasi asosida rektor (direktor) kafolat xatini berish orqali amalga oshirish.

7. OTMlarda **1-bo'lim faoliyatini** talab darajasida tashkil etish. ularni diplomlarini tarqatish vazifasidan ozod etish, qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qitish va h.k.).

7.2. 1-bo'lim uchun **ajratilgan xonani talab darajasida jihozlash** va zarur shart-sharoitlar yaratish hamda xodimlarni ish faoliyatiga qarab maoshlariga OTMning byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan o'rnatilgan tartibda oylik ustama haqini belgilash choralarini ko'rish.

7.3. **Eng namunali deb topilgan** Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 1-bo'lim G.Nasritdinovaga OTMning byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 14 baravarida miqdorida bir martalik **moddiy rag'batlantirish tavsiya etilsin.**

8. OTMlarning **talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi** mablag'laridan **2022-yil 1-yanvardan boshlab** talabalar, shu jumladan qo'shma ta'lim dasturlari

faoliyat yuritayotkan tadbirkorlarni o'rganildi va o'rganishlar olib borilib, mavjud kamchiliklar va takliflar bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

6. Yangi ta'lim yo'nalishlarini ochishda universitetning Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xulosasi asosida rektor tomonidan (direktor) kafolat xatini berish orqali amalga oshirilmoqda.

7. Universitet va uning filiallarinig 1-bo'lim faoliyatini to'liq o'rganib chiqildi. Talab darajasida tashkil etildi. Ularni diplomlarni tarqatish vazifasidan ozod etildi. Mas'ul hodimlar malakasi oshirilgan. 7.2. 1-bo'lim uchun ajratilgan xona talab darajasida tashkil etilgan va zarur shart-sharoitlar yaratildi hamda xodimlar ish faoliyatiga qarab maoshlariga universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan o'rnatilgan tartibda oylik ustama haqi belgilandi va rag'batlantirildi.

7.3. Eng namunali deb topilgan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 1-bo'lim G.Nasritdinovaga universitetning Samarqand filiali byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 14 baravari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantirildi.

8. Universitetning talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'laridan 2022-yil 1-yanvardan boshlab talabalar, shu jumladan qo'shma ta'lim dasturlari talabalariga moddiy yordam ko'rsatish va ularni rag'batlantirish bo'yich tegishli choralar ko'rilmogda.

9. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limlari xodimlarining oylik maoshiga ustama haqi o'rnatilgan tartibda berilmogda.

talabalariga moddiy yordam ko'rsatish va ularni rag'batlantirish choralari ko'rish;

9. **Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limlari xodimlarining oylik maoshiga ustama haqini belgilash**, ustama haqi belgilanmagan OTMlarda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlarining oylik maoshiga **2022-yil 1-yanvardan** boshlab ustama haqi to'lovlarini to'xtatish;

10. **Fuqarolarni har hafta shaxsan rektor** tomonidan qabul qilinishini ta'minlash hamda fuqarolar murojaatlarini imkon darajasida ijobiy hal qilish masalasiga alohida e'tibor qaratish;

13. **Texnika xavfsizligini** alohida nazoratga olish va OTMlar tomonidan **elektr energiyasini iqtisod qilish** choralari ko'rish hamda ushbu sohaga tajribali mutaxassislarni ishga qabul qilish;

14. Oliy ta'lim muassasalarining **yirik yubiley sanalarini** keng nishonlash amaliyotini joriy etish;

15. Har bir oliy ta'lim muassasasida o'zining **press-klubini** tashkil etish.

16. **Yangi yil bayrami** munosabati bilan professor-o'qituvchi va xodimlarni **moddiy rag'batlantirish**, pandemiya talablaridan kelib chiqib, **korporativ tadbirlarini o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik** va mazkur bayramni **oila davrasida o'tkazish** bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

17. OTMlarda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohaslarida **tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish** va ushbu jarayonlarga OTM talabalarini jalb qilish choralari ko'rish

10. Rektor tomonidan haftaning chorshanba kuni soat 10-00 dan 13-00 gacha fuqarolarni qabul qilishi amalga oshirilmoqda hamda fuqarolar murojaatlarini mazmun mohiyati va tegishliligi bo'icha ijobiy hal qilish choralari ko'rilmogga.

13. Texnika xavfsizligini alohida nazoratga olingan, mas'ul hodimlar birlashtirilgan va malakasi oshirilgan. universitet tomonidan elektr energiyasini iqtisod qilish choralari ko'rilgan iqtisod qiluvchi lampalar o'rnatilgan hamda bu yo'nalishda ishlar davom etirilmoqda.

14. Universitetning 70 yillik yubiley sanalarini keng nishonlash bo'yicha tegishli chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va uning o'tkazish bo'icha rejalar shakllantirilmoqda.

15. Universitetda "TATU press-klub o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan. Shu kunga qadar AKT sohasidagi malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar va Universitet faoliyatida ishlydigan mehnat fahriylari, proffesor o'qituvchilar bilan davra suxbatlari tashkil etilgan.

16. Yangi yil bayrami munosabati bilan Universitetda faoliyat olib boratyotgan professor-o'qituvchi va xodimlarni bayram munosabati bilan moddiy rag'batlantirildi esdalik sovg'alari va ularning farzandlari uchun yangi yil sovg'alari berildi. Pandemiya talablaridan kelib chiqib, korporativ tadbirlarini o'tkazilmadi va mazkur bayramni talabalarga ham oila davrasida o'tkazish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borildi va oilalari bag'riga yuborildi.

17. Universitetda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohaslarida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha o'rnatilgan tartibda ishlar amalga oshirilmoqda laboratoriyalar

			tashkil etilgan. Ushbu jarayonlarga universitet talabalari jalb qilinmoqda.
III. Apparat Kengashi yig'ilishi bayonlari ijrosi			
1.	<p style="text-align: center;">1-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>1.2. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida xohish, istak va ehtiyojlarini aniqlovchi indikatorlarini ishlab chiqish va shu asosda muntazam ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish;</p> <p>- xar bir tashabbus bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarni, sport seksiyalarini malakali pedagoglar, sport ustalari, o'quv, badiiy adabiyotlar, zarur jihozlar bilan ta'minlanishini va ularga talabalar qamrovini oshirishni aloxida nazoratga olish va bu jarayonda to'garak rahbarlarini moddiy va ma'naviy ratbatlantirish tizimini yo'lga qo'yishga jiddiy e'tibor qaratish;</p> <p>- joriy yilning 1-apreliga qadar beshta tashabbus doirasida o'tkazilgan tadbir va tanlovlarda faol ishtirok etgan va g'oliblikni ko'lga kiritgan iqtidorli talaba-yoshlarni rag'batlantirish maqsadida ularning aloxida ma'lumotlar bazasini shakllantirish vazifalari yuklansin.</p> <p>4.1. 2021 yil uchun Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan doktoranturaga qabul qilinganlarning o'z muddatida himoya qilishi uchun barcha shart- sharoitlarni yaratish vazifasi yuklansin.</p>	<p style="text-align: center;">Yoshlar masalalari, ma'naviyat va marifat bo'limi S.Jumayev 19.01.2021</p>	<p>68-01-sonli buyruq kiritilgan. Beshta tashabbus doirasida o'tkazilgan tadbir va tanlovlarda faol ishtirok etgan va g'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidorli talaba-yoshlarni rag'batlantirish maqsadida ularning ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan.</p> <p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2021-yil uchun Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan doktoranturaga qabul qilingan ilmiy tadqiqotchilar o'z vaqtida himoya qilishlari uchun birinchi navbatda kafedralarga biriktirilib, mavjud laboratoriyalarda ilmiy faoliyat yuritishlari uchun imkoniyat yaratildi. Ikkinchidan Universitet kutubxonasidan foydalanish va xalqaro ilmiy bazalardagi materiallardan foydalanishlari uchun doktorantura bo'limida kompyuter sinfi tashkil etildi. Uchinchidan, ilmiy tadqiqotchilar uchun ingliz tili va ilmiy maqolalar shakllantirish bo'yicha kurslar tashkil etildi. To'rtinchidan, doktorantlarning aksariyat qismi Universitetda olib borilayotgan ilmiy loyihalar jalb etildi.</p> <p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2021 yil 18-yanvardagi 68-sonli buyrug'ining 2-bandi bo'yicha, 2020-2021 o'quv yili davomida TATU da Koronavirus infeksiyasi pandemiyasi sababli, barcha o'quv jarayonlar onlay tarzda bo'lganligi va talabalar OTM da bo'lmaganligi sababli, 2021 yilning 1-apreliga qadar beshta tashabbus doirasida o'tkaziladigan tadbir va tanlovlarda faol ishtirok etgan va g'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidorli talaba-yoshlarni rag'batlantirish maqsadida tadbirlar o'tkazilmagan va Yoshlar bilan bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limiga ma'lumotlar taqdim etilmagan. Iqtidorli talabalar bo'limi va barcha fakultet</p>

			<p>Yoshlar bilan ishlash dekan muovnlari bilan kelishilgan holda, TATUda tahsil olayotgan talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida xohish, istak va ehtiyojlarini aniqlovchi indikatorlarini ishlab chiqish va shu asosda muntazam ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish, ya'ni xar bir tashabbus bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarni, sport sektsiyalarini malakali pedagoglar, sport ustalari, o'quv, badiiy adabiyotlar, zarur jihozlar bilan ta'minlanishini va ularga talabalar qamrovini oshirishni aloxida nazoratga olish, beshta tashabbus doirasida o'tkazilgan tadbir va tanlovlarda faol ishtirok etgan va g'oliblikni ko'lga kiritgan iqtidorli talabayoishlarni rag'batlantirish masalalari 2022-yilning mart oyida, Navro'z bayrami arafasida o'tkazilishi rejalashtirilgan.</p>
2.	<p>16-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>2.1. Loyihaning manzilli ro'yxatini kiritilgan 61 ta oliy ta'lim muassasalariga joriy yilning iyul oyiga qadar o'quv-laboratoriya jihozlarini qabul qilish uchun laboratoriya xonalarini tayyor holatga olib kelish vazifasi yuklansin.</p>	<p>Foydalanish xo'jalik xizmati bo'limi boshlig'i E.Isoqov 10.06.2021</p>	<p>"Oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash" loyihasi doirasida xarid qilinadigan o'quv-laboratoriya to'plamlari bo'yicha "Mobil aloqa texnologiyalari" kafedrasiga biriktirilgan A o'quv binosining 131-auditoriyasi, "Multimedia texnologiyalari" kafedrasiga biriktirilgan B o'quv binosining 522-auditoriyasi va "Kompyuter tizimlari" kafedrasiga biriktirilgan D o'quv binosining 322-auditoriyasi o'quv-laboratoriya jihozlarini o'rnatish uchun ta'mirlangan, hamda o'quv-laboratoriya jihozlarining texnik talabiga moslashtirilgan.</p> <p>O'quv-laboratoriya jihozlaridan ta'lim jarayonlarida maqsadli foydalanish, ularni doimiy ishchi va yaroqli holatda bo'lishini ta'minlash choralari ko'rilgan.</p>
3.	<p>22-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>"Yo'l xaritasi"ning 14-bandiga muvofiq kirill yozuvidan lotin yozuviga (yoki aksincha) savodxonli o'giradigan dasturiy ta'minotlar hamda ularning mobil ilovalarini yaratish va ishga tushirishcholarini kuchaytirsin.</p>	<p>Dasturiy injiniringi fakulteti dekani O.Ro'ziboev 28.07.2021</p>	<p>1417-01-sonli buyruq asosida ijrochilarga vazifalar yuklatilgan.</p> <p>Dasturiy injiniring fakulteti, "Tizimli va amaliy dasturlashtirish" kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan o'g'iradigan "kiril-lotin, lotin-kiril onlayn translit" dasturiy vosita va uning mobil ilovasi ishlab chiqilgan. Mazkur</p>

			dasturning yangi versiyalarini takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.
3.	<p>23-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>1.3. oliy ta'lim muassasalari mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib xususiy sektor ishtirokida xorijiy tillar va kasbga o'rgatish uchun tashkil etiladigan o'quv kurslarining yo'nalishi va soni to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlik huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markaziga joriy yilning 20-avgustiga qadar taqdim etish vazifasi yuklansin.</p>	<p>Chet tillar kafedrası mudiri A.Sharipova 03.08.2021</p>	<p>Universitetda tashkil etilgan o'qituvchilarga xorijiy tillarni puxta o'rgatishga yo'naltirilgan "ENGLISH FOR IT SPECIALISTS" deb nomlangan til markaziga universitetda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar Ingliz tili fani bo'yicha 2021-yil noyabr oyidan jalb etildi. Xozigi kunda qatnashuvchilar soni 23 tani tashkil etmoqda.</p>
4.	<p>35-son bayoni ijrosi bo'yicha</p> <p>jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalarini orqali kelib tushgan murojaatlar qisqa muddatlarda har tomonlama sinchiklab ko'rib chiqilsin va qonun doirasida hal etilishi ta'minlansin hamda nazorat ishlari kuchaytirilsin;</p> <p>shaxsiy va sayyor qabullar tasdiqlangan jadvallar asosida samarali tashkil etilsin va ularda ko'tarilgan sohaviy muammolarni qonuniy hal etish bo'yicha amaliy choralar ko'rilsin;</p> <p>jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsiy qabul qilishga, murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning amaliy yechimlarini topishga alohida e'tibor qaratilsin;</p> <p>haftada kamida bir marta murojaatlar bilan ishlash holati tanqidiy muhokama qilib borilsin, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar belgilansin hamda murojaatlar bilan ishlashga mas'ul xodimlarning malakasi oshirilishi ta'minlansin;</p> <p>2021 yilning 4-choragi yakunlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish holati</p>	<p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring b o'limi L.Jo'rayev 19.11.2021</p>	<p>Universitetda 1193-01-sonli buyruq chiqarilgan.</p> <p>Universitet rahbariyatining jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish bo'yicha 2021 yilning ikkinchi yarim yilligi uchun shaxsiy va sayyor qabullar jadvali 2021 yil 5 iyuldagi 691-sonli buyruq asosida tasdiqlangan.</p> <p>Universitet rahbariyati 2021 yil davomida xududiy filiallar va tasarrufidagi professional ta'lim muassasalarida, akademik litseylarda sayyor qabullar o'tkazib kelgan va murojaatlarda ko'tarilgan muammolar universitet vakolat doirasidan kelib chiqib joyida yechimi topilgan. Universitet rahbariyati tomonidan 74 ta murojaat qabul qilingan va 4 ta sayyor qabullarda ko'rib chiqilgan murojaatlarning yechimi topilgan va qoniqtirilgan.</p> <p>2021-yilning 4-choragi yakunlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish holati hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida xisobot 2021-yil 29 - dekabrda 4117/6-01-sonli xat bilan Vazirlikka kiritilgan.</p>

	hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazirlikka hisobot kiritilishi ta'minlansin.		
4.	<p style="text-align: center;">36-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>2.2. tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni Farmon bilan belgilangan (7 kun) muddatda qonuniy hal etilishiga alohida e'tibor qaratilsin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan majlis bayoni vazirlikka ijro uchun yuborilganda, zudlik bilan majlis bayonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, shaxsiy mas'uliyatni oshirgan holda tadbirkorlarning har bir murojaatini tezkorlik bilan qonuniy hal qilish choralari ko'rilsin.</p> <p>2.3. Vazirlikning 2021-yil 31-martdagi 156-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan tadbirkorlar murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosini tahlil qilish, takroriy murojaatlarni kelib chiqish sabablarini aniqlash, ko'tarilgan muammo va masalalarni tezkor hal etish hamda murojaatlar bilan ishlashda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin;</p> <p>har oyda tadbirkorlar murojaatlari bilan ishlash natijalarini tanqidiy muhokama qilib, ko'tarilgan muammo va masalalarning tezkor hal etilishiga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlar belgilansin;</p> <p>"business.gov. uz" yagona interaktiv portali orqali kelib tushgan murojaatlar belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilsin va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar portalga joylashtirilib borilsin;</p> <p>karantin qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda hududlarda tadbirkorlar bilan manzilli uchrashuvlar</p>	<p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi L.Jo'rayev 26.11.2021</p>	<p>Mazkur bayon ijrosini ta'minlash yuzasidan universitetda 1259-01-sonli buyruq kiritilgan.</p> <p>36 - son bayon ijrosi yuzasidan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, nazorat va monitoring bo'limi tomonidan tegishli chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.</p> <p>Mazkur masalalar Xaftaning xar 5-kunida Rektor oldi yig'ilishida muhokama qilinib ma'sul ijrochilar bilan takroriy murojaatlarning oldini olish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilib kelingan.</p> <p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining 2021 yil 23 dekabrda 4/5 (717/718) - sonli yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarori talablari va Vazirlikning 2021-yil 31-martdagi 156-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan muxokama o'tkazilgan.</p> <p>2021 yil davomida universitetga "business.gov. uz" yagona interaktiv portali orqali murojaat kelib tushmagan.</p>

<p>o'tkazilishi va muammolarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlansin;</p> <p>tashkilot va idoraning rahbari o'rinbosarlari javobidan norozi bo'lgan fuqarolarning murojaatlari yuzasidan yakuniy qaror tashkilot va idoraning birinchi rahbari tomonidan qabul qilinishi va bu haqida murojaat muallifiga uning imzosi bilan javob berilishi belgilab qo'yilsin;</p> <p>tadbirkorlar va chet ellik investorlarni qabul qilish, muammolarni aniqlash, murojaatlarini ko'rib chiqish, masalalarni qonuniy hal etishga yuzaki yondashish holatlariga yo'l qo'yilgan taqdirda qattiq ta'sirchan choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilsin.</p> <p>5.1. Xorijiy xizmat safarlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarori va mazkur qaror talablariga so'zsiz rioya etilishi uchun shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.</p> <p>- o'n kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarori talablarini barcha Oliy ta'lim muassasasi Kengashi majlislarida muhokama qilinsin hamda kelgusida bunday kamchiliklarga yo'l qo'yilishining oldini olish choralari ko'rilsin.</p>		
<p>39-son bayon ijrosi bo'yicha</p> <p>3. "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan e'lon qilinadigan ochiq stipendiya tanlovlariga oliy ta'lim muassasalarining yosh olimlarini va iqtidorli talabalarini xorijiy davlatlarga magistratura va doktorantura ta'lim</p>	<p>II va I prorektori K.Tashev 15.12.2021</p>	<p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universitetida "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan e'lon qilinadigan ochiq stipendiya tanlovlari haqida e'lonlar mauntazam ravishda xodimlarga yetkaziladi va talbgor xodimlarning ro'yxati shakllantirib boriladi. Shakllantirilgan</p>

<p>dasturlari orqali o'qishga yuborish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish; Ishtirokchilarining mutaxassislik va xorijiy tillarni bilish darajalarini oshirish bo'yicha kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish</p>		<p>ruyxat asosida nomzodlarga mutaxassislik va xorijiy til buyicha mentorlar tayinlanadi va ular asosida kurslar tashkil etiladi. Hozirgi kunda Universitetda 30ga yaqin nomzodlar ro'yxati shakllantirilgan.</p>
--	--	---

**Jismoniy va yuridik shaxslarning
murojaatlari bilan ishlash,
nazorat va monitoring b o'limi boshlig'i**



L.Jo'rayev